



TOP-CONFERENCES

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

MAMLAKATIMIZDA BIOIQTISODIYOTGA O‘TISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

aqida_abdurakhmanova@yahoo.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bioiqtisodiyotning rivojlanishi, evolyutsiyasi, kelib chiqishi, nazariy asoslari, keng yoritilgan bo‘lib, mamlakatimizda bioiqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar o‘rganilgan va bioiqtisodiyotning kelib chiqishi, ta‘rifi imkoniyatlari, xalq xo‘jaligining rivojlanishiga ta‘siri keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Bioiqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, bioresurs.

Kirish.

Lug‘atlarda islohotlar atamasi “bir boshqaruv tizimidan yaxshiroq holatga o‘tish, o‘zgartirish, almashtirish kabilar” sifatida ta‘riflangan¹. Shunday ekan, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar deganda agrar sektorda huquqiy asosda mavjud boshqaruv tizimidan yaxshiroq shakliga o‘tish tushuniladi. Bunday islohotlar yer va suv islohotlari, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Mustaqillikdan keyin mamlakatimizda olib borilgan agrar islohotlar natijasida jamoa va davlat xo‘jaliklari bosqichma-bosqich shirkat xo‘jaliklari hamda fermer xo‘jaliklariga aylantirildi. Jamoa va davlat xo‘jaliklarida o‘rtacha yer maydoni 1500-2000 gektarni, fermer xo‘jaliklarida esa o‘rtacha maydon 1-50 gektarni tashkil etdi. Fermer xo‘jaliklarini maqbullashtirish islohoti o‘laroq 2009 yilda fermer xo‘jaliklarining o‘rtacha yer maydoni 40-100 gektar bo‘lgan bo‘lsa, 2013 yildan keyin fermer xo‘jaliklarini maqbullashtirish islohoti davom etdi va hozirda ularning o‘rtacha yer maydoni 30 gektarga yetdi².

Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish bugungi kunda paydo bo‘lgan muammo emas, balki asrlar davomida rivojlanib kelgan. Buning asosiy sabablaridan biri Markaziy Osiyo dunyodagi sug‘oriladigan dehqonchilikning eng qadimiy joylaridan biri hisoblanadi. Ohara shunday tasvirlab beradiki: “Taxminan 8000 yil avval sug‘orish asta-sekin rivojlanib butun mintaqada taxminan 3000 yil oldin paydo bo‘lgan va shundan keyin u nisbatan tezroq kengayib

¹ <https://www.dictionary.com/browse/reforming>

² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari, 2017 yil

borgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra 2000 yil oldin Amudaryo va Sirdaryoning delta mintaqalarida qariyb 3,6 million gektar yer sug'orilgan³.

Vazirlik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 571-son qarorining 1-ILOVAsi bilan belgilab qo'yilgan. Ushbu vakolati doirasida vazirlik tomonidan 2019-2023-yillarda qishloq xo'jaligi sohasiga doir 331 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Xususan, 2023-yilda agrar islohotlarni takomillashtirish bo'yicha 14 ta qonun loyihasi, 17 ta Prezident Farmoni loyihasi, 22 ta Prezident Qarori loyihasi, 91 ta Hukumat Qarori loyihalari ishlab chiqilib, ulardan 55 tasi, jumladan 4 ta Qonun, 8 ta Prezident Farmoni, 16 ta Prezident Qarori, 26 ta Hukumat qarori normativ hujjatlar qabul qilindi.



1-rasm. Qishloq xo'jaligiga qabul qilingan qonun hujjatlari⁴.

1991-yilda mustaqillikka erishgandan so'ng, O'zbekiston qishloq xo'jaligini faol ravishda qayta tashkil etdi, shu bilan birga hukumat fermer, tuman, viloyat va milliy miqyosda qishloq xo'jaligiga oid qarorlarni qabul qila boshladi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan ba'zi muhim islohotlar 1.2.2-rasmda ifodalangan bo'lib, tadqiqot davomida ushbu islohotlarning ayrimlarini baholadik.

Agrar islohotlarni amalga oshirish doirasida sohada muhim bo'lgan quyidagi me'yoriy hujjatlarni ta'kidlab o'tish joiz:

(1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash choralari haqida" gi 30-dekabr 1991 yil 315-son qarori. Ushbu qarorga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat ijroiya qo'mitalari, manfaatdor vazirliklar va idoralarning takliflariga ko'ra dehqon (fermer) xo'jaliklariga yer ajratish uchun kamida 200 ming gektar maxsus yer fondi barpo etish belgilab berilgan. Shuningdek, ko'rsatilgan yer fondini shakllantirish 1992 yilning 1 fevraliga qadar, yerlarni ajratish esa 1992 yilning 1 martiga qadar amalga oshirish ta'kidlangan.

(2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 1993-yil 7-yanvardagi 13-son qarori. Ushbu hujjat fermer xo'jaliklarining erkinligini oshirishga, bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligidagi islohotlarni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu hujjatga binoan g'alla, go'sht, sut, tuxum, tamaki, uzum, quruq mevalar kabi ba'zi qishloq xo'jalik ekinlari uchun davlat buyurtmasini 80 foizga tushirish rejalashtirilgan. Ipak uchun davlat buyurtmasi 70 foiz, meva-sabzavot uchun 50 foiz saqlanib qolgan. Shuningdek, ushbu hujjatga muvofiq, 1600 ming ga maydonga paxta urug'ini ekish va 1370.000 tonna paxta

³ O'Hara, S. (2000): Lessons from the past: water management in Central Asia. In *Journal of Water Policy* 2, pp. 365-384

⁴ O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi hisobot

tolasini (4.300.000 tonna paxta xom ashyosini) yetishtirish belgilangan. O'sha paytda Samarqand viloyatida 114172 ga maydonga paxta ekilgan va 249047 tonna yalpi paxta xom ashyosi yig'ib olingan⁵.

(3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 29- noyabr 1994 yilgi 575-son qarori. Ushbu qarorning maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikasida foydalanilmayotgan yerlarni hamda past rentabelli va zarar ko'rib ishlovchi qishloq xo'jaligi korxonalarining yerlarini fuqarolarga meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilishlari uchun, tajriba tariqasida berishdan iborat. Ushbu hujjatga muvofiq sug'oriladigan maydonlarda yerlarni 5 gektardan ko'p bo'lmagan va sug'orilmaydigan maydonlarda esa 15 gektar yer maydoni ajratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "1995 yilda sug'oriladigan yerlarda boshqoli don ekinlari yetishtirishii yanada ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1994-yil 5-avgustdagi 400-son qarori. Ushbu farmon O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan g'alla yetishtirish maydonini kengaytirishga qaratilgan. Ushbu hujjatga muvofiq Samarqand viloyatida 215 ming gektarga don ekinlari ekilgan.

⁵ Samarqandviloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari



2-rasm. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan ayrim islohotlar (1991-2023 yillar davomida)

So'nggi yillarda sohani barqarorligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan ko'plab choratadbirlar, tarkibiy islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. O'tgan yil davomida, jiddiy muammolarga qaramay, bizning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tizimlarimiz mustahkam va barqaror bo'lib qolmoqda. Bu esa shakllangan sektor tajribasi hamda ta'minot zanjiri tuzilmalarining ishonchliligidan dalolat beradi. Pirovardida, iste'molchilarimiz uchun keng turdagi yuqori sifatli, arzon qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlaridan muntazam foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dubey S., Garg M., Sharma K., Bioresources, biodiversity and eco-management, *J. Exp. Sci.* 2 (10) (2011) 62e63
2. Narodoslowsky M., Utilizing Bio-Resources: Rational Strategies for a Sustainable Bio-Economy, 2014. ITAmanuscript No.: ITA-14-02 (November/2014). Available at: http://epub.oeaw.ac.at/ita/ita-manuscript/ita_14_02.pdf.
3. Fabinyi M. Environmental fixes and historical trajectories of marine resource use in Southeast Asia, *Geoforum* 91 (2018) 81e96.
4. Agency I. E., “Uzbekistan Energy Profile INTERNATIONAL ENERGY”.
5. Narzullayeva G. S and Mukhtarov M. M., “Impact of Covid-19 on tourism: the restoration of tourism and the role of young entrepreneurs in it,” *World Econ. Financ. Bull.*, vol. 2, no. 2, pp. 14–18, 2021
6. Baumgartner P. and Cherlet J., *Institutional framework of (in) action against land degradation*. 2015. doi: 10.1007/978-3-319-19168-3_3.
7. Y. Iqbal *et al.*, “Maximising the yield of biomass from residues of agricultural crops and biomass from forestry. Final Report.” *Ecofys*, p. 354, 2016.
8. UN FAO, *The Global Forest Goals Report 2021. Realizing the importance of forest in a changing world*. 2021.
9. Junaydulloevich A. A., Mukhammedrizaevna T. M., and Bakhritdinovna A. N., “Environmentally friendly and sustainable supply chain management in the platform economy,” *Economics*, no. 3 (46), pp. 23–25, 2020.
10. Mugendi M., “Innovation for sustainable development,” *African J. Sci. Technol. Soc. Sci.*, vol. 1, no. 1, 2022, doi: 10.58506/ajstss.v1i1.23.
11. Grabara J., A. Tleppayev, M. Dabylova, L. W. W. Mihardjo, and Z. Dacko-Pikiewicz, “Empirical research on the relationship amongst renewable energy consumption, economic growth and foreign direct investment in Kazakhstan and Uzbekistan,” *Energies*, vol. 14, no. 2, p. 332, 2021

O‘zSTAT, Stat.to‘plam, Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi nashri, 2015 ma’lumotlari asosida.